



## DISTINCTIVE EXPRESSION OF FIGURATIVE MEANING IN SYNESTHETIC EPITHETS

**Oripova Mavludaxon Baxriddinova**

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named  
after Alisher Navoi 2nd year doctoral student

mavludaxonoripova85@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15592459>

### ARTICLE INFO

Received: 25<sup>th</sup> May 2025

Accepted: 30<sup>th</sup> May 2025

Online: 31<sup>st</sup> May 2025

### KEYWORDS

Synesthetic metaphors,  
epithet, tropes, lexical  
meanin, occasional  
meaning.

### ABSTRACT

*In ingregulated speech activity, each speaker creates expressions that fit the moment and context of speech, differing from pre-existing, fixed patterns. The epithet, as an important element of artistic imagery, is most often expressed through stylistic devices. There must be a certain degree of strong emotional connection between the modifier and the modified word. This article explores the role of lexemes perceived through different senses in forming synesthetic epithets in a figurative sense.*

## СПЕЦИФИЧЕСКОЕ ВЫРАЖЕНИЕ ПЕРЕНОСНОГО ЗНАЧЕНИЯ В СИНЕСТЕТИЧЕСКИХ ЭПИТЕТАХ

**Орипова Мавлюдахон Бахриддиновна**

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени  
Алишера Навои докторант 2-го курса

mavludaxonoripova85@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15592459>

### ARTICLE INFO

Received: 25<sup>th</sup> May 2025

Accepted: 30<sup>th</sup> May 2025

Online: 31<sup>st</sup> May 2025

### KEYWORDS

Синестетическая  
метафора, эпитет,  
тропы, лексическое  
значение,  
оказиональное  
значение.

### ABSTRACT

*В нерегулируемой речевой деятельности каждый говорящий создаёт новые выражение, соответствующие моменту речи и условиям ситуации, отличающиеся от заранее существующих готовых шаблонов. Эпитет, как важный элемент художественного изображения, чаще всего выражается с помощью тропов. Между определением и определяемым должно существовать определённая степень сильной эмоциональной связи. В данной статье раскрывается роль лексем, воспринимаемых через различные органы чувств, в создании синестетических эпитетов в переносном значении.*

## SINESTEZIK EPITETLARDA KO'CHMA MA'NONING O'ZIGA XOS IFODALANISHI

**Oripova Mavludaxon Baxriddinova**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti  
2-kurs doktoranti.

mavludaxonoripova85@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15592459>



ARTICLE INFO

Received: 25<sup>th</sup> May 2025

Accepted: 30<sup>th</sup> May 2025

Online: 31<sup>st</sup> May 2025

KEYWORDS

*Sinestezik metafora, epitet, ko'chimlar, leksik ma'no, okkozional ma'no.*

ABSTRACT

*Jilovlanmagan nutqiy faoliyatda har bir so'zlovchi avvaldan mavjud tayyor qoliplardan farqli, nutq momenti, shart-sharoitiga mos qoliplarni "yasaydi". Epitet badiiy tasvirning muhim tarkibiy unsuri sifatida aksariyat hollarda badiiy ko'chimlar orqali ifodalanadi. Har qanday aniqlovchi sifatlovchi epitet bo'la olmaydi. Epitet holatida voqelanishi uchun aniqlovchi va aniqlanmish o'rtasida muayyan darajada kuchli emotsional munosabatlar bo'lishi kerak. Mazkur maqolada farqli sezgilar orqali idrok etiladigan leksemlarning ko'chma ma'noda sinestezik epitetlar hosil qilishdagi roli ochib beriladi.*

**Kirish (Introduction).** Ijodkor tomonidan muayyan estetik maqsad bilan tuzilgan g'ayriodatiy birikmalardagi komponentlardan birining belgi bildiruvchi so'zlar bo'lishi ko'proq kuzatiladi. Bunda ana shu belgi bildiruvchi so'zlardagi konkret mazmun abstraktlik tomon siljiydi. Albatta, bu abstrakt mazmun tamoman ajralgan muallaq holatda bo'lmaydi, balki so'zning konkret mazmunidagi potentsiya sifatida mavjud bo'lgan ma'no qirralari, uning rang-barang shtrixlari asosida yuzaga keladi [Mahmudov N. 2007:49].

Masalan, *yashil barg* birikmasida *yashil* so'zi konkret bir mazmunning juda ham yorqin ifodasi bo'lgan bo'lsa, *barg* so'zini *shabboda*, *sevgi*, *orzu* so'zlari bilan almashtirilganda, bu konkretlik abstraktlashadi. *Yashil shabboda* birikmasida rangning konkretligi va moddiyligi inkor qilinishi hisobiga *yashil* so'zining mazmuni umumlashishi, ya'ni nomoddiylik bilan bu so'z **metaforik epitetga** aylanadi.

*Yer yosh, soflik jimirlatar etni,*

*Zoriqqan g'unchalar ochildi bog'da.*

*Panjaradan oshib chiqib ketdi*

*Maysazorda yurgan yashil shabboda.*

Shuni aytish kerakki, *yashil* so'zining semantik tarkibida uni "tiniqlik", "tozalik", "navqironlik", "ko'rkamlik" kabi turli xil assotsiatsiyalarni hosil qilish imkoniyatiga ega. Bu esa uning mazmunidagi mazkur abstraktlashuv shunchaki sodir bo'lmaganligini ko'rsatadi. Faqat ijodkor uning bu imkoniyatidan birinchi bo'lib foydalanayotgani uchun bunday birikma bizga g'ayriodatiy tuyuladi.

**Usul (Methods).** A.Veselovskiy epitetlarni lingvistik usulda o'rganib, uning rivojlanishini so'zning ichki va tashqi jihatdan o'zgarishlari bilan bog'liq holda izohlaydi. Muallifning ta'kidlashicha, so'z ma'nosining ichki rivojlanishi lug'aviy ma'noning kengayishi yoki torayishi oqibatida yuz beradi. Belgi yoki xususiyat anglatuvchi epitet o'z ma'nosini o'zga so'z yoki sinonimlar vositasida ifodalasa, ma'noning tashqi rivojlanishi yuzaga keladi. Tilshunos epitetlarning o'z yoki ko'chma ma'noga ega bo'lishlariga qarab *epitet-metaforalarni* alohida guruhga ajratadi va ularni anglatgan ma'nolariga ko'ra batafsil tahlil qiladi [Veselovskiy A., 1989:65].

Epitet qo'llanilishi muayyan narsadagi ayni bir, ya'ni ijodkor tomonidan ilg'ab olingan va badiiy asarda alohida ko'rsatishga bo'lgan ehtiyoj tufayli yuzaga keladi. Epitet badiiy ifoda yoki tasvir usuli bo'lsa, ko'chimlar badiiy tasvir va ifoda vositasidir.



A.Potebniya epitetlar narsa yoki voqelikdagi muayyan belgi-xususiyatni alohida ajratib ko'rsatishga xizmat qilishlarini to'g'ri qayd etadi. Muallif epitetning ifodalanish vositalari va so'z turkumlari haqida to'xtalib, ularni quyidagicha ifodalaydi: 1. Aniqlovchi sifatlar 2. Ot turkumidagi izohlovchilar 3. Sifat aniqlovchi va sifat. 4. Ravish va sifat. 5. Ravish va fe'l. 6. Fe'l va fe'l [ Potebnya 1990: 165]. Demak, keltirilgan birikmalar tabiatidan ma'lumki, epitetlar nafaqat aniqlovchi-aniqlanmish munosabatida, izohlanmish-izohlovchi, aniqlanmish-kesim, hol-kesim munosabatlarida ham qo'llanadi.

R.Qo'ng'urov epitetni troplar doirasida olib o'rganar ekan, "...sifatlashning bir turi. Ammo u doimiy sifatlashlardan o'zining ekspressivligi, ko'chma ma'noda ishlatilishi bilan farq qiladi", - deb yozadi va epitetga nisbatan "*poetik aniqlovchi*" atamasini qo'llaydi. [ Qo'ng'urov R. 1990: 78] Ammo B. Umirqulov "sifatlashlar mohiyati jihatdan aniqlovchilarga yaqin bo'l lib, aniqlovchilardan emotsional ta'sirchanligi, favqulodda vujudga kelganligi bilan farqlanadi", - deb izohlaydi.

O'zbek adabiyotshunosligiga doir lug'atlarda ham epitet "sifatlash" atamasi ostida izohlanadi. "...sifatlash yolg'iz o'zi kelmasdan, ma'lum so'z birikmasi tarkibida o'z mohiyati, o'z belgilarini unga ko'chirgan holda keladi. Bunday birikma metaforik sifatlash deyiladi... Sifatlash ishlatilishidan maqsad kitobxon diqqatini kuzatilgan tomonga, hodisaning ma'lum bir belgisiga jalb etishdan iboratdir. Sifatlashda, ko'pincha, sifatdan foydalanilsa ham, turli so'z turkumlari ham sifatlash bo'lib kela oladi.

**Natijalar(Results).** Epitet narsa yoki voqelikni aniq, ravshan yoritib beruvchi lingvistik vosita bo'lib, xususan, bu sifatlash ifodalovchi so'z yoki so'z birikalaridan tashkil topadi. Epitet sintaktik tarkibiga nazar tashlaydigan bo'l isak, ba'zan biror bir hodisa, obyekt yoki abstrakt tushunchalarni izohlayotgan bo'l lak shunchaki oddiy aniqlovchilar emas, hosila ma'noning ma'lum sezgi bilan qabul qilingan referenti hosil qiluvchi ma'noning boshqa sezgi bilan qabul qilingan referentiga qiyoslangan, o'xshatilgan bo'ladi. Referentlar umuman boshqa-boshqa sezgi bilan qabul qilinsa ham, ularning xususiyati kishi ongida umumlashtiriladi va bir xil tasavvur etiladi, aniqlovchilari farqli sezgilar orqali idrok qilingan leksemalar orqali ifodalanadi, ya'ni *sinesteziya* ro'y beradi. Masalan,

Bir o'zim, sen yo'qsan endi yo'limda,

Serzavq davralarda yurarsan o'ynab.

*Achchiq she'r* silqiydi yara ko'nglimni

Qadimiy so'zlarni qiynab tararman. (R.Parfi)

Ushbu satrlarda ifodalangan *achchiq she'r* birikmasi komponentlarini tashkil qilgan leksemalarning genetik tabiatiga e'tibor bersak, *she'r*- bu leksemaning semantik strukturasida "eshitish" semasi mavjud, bu leksema ta'mni ifodalovchi so'z bilan valentlik hosil qilolmaydi. Bu o'rinda "eshitish" sezgisi orqali idrok qilinishi kerak bo'lgan leksema "*ta'm bilish*" sezgisi orqali ifodalangan. Demak, farqli sezgilar orqali ko'chma ma'no ifodalangan.

**Muhokama (Discussion ).** Epitetli sinestezik metaforalarda sifatlovchining qanday "sezgi" orqali idroklanganligidan kelib chiqib, biz ularni quyidagi guruhlariga ajratamiz va shartli ravishda *sinestezik epitetlar* terminini qo'llaymiz.

1. "*Ko'rish*" sezgisi orqali idrok qilinadigan sinestezik epitetlar



Ba'zan badiiy nutqda "ko'rish" sezgisi orqali idrok etiladigan turli rang-tasvir, shakl-shamoyilni ifodalovchi leksemalar orqali yuzaga kelgan ko'chimga ko'zimiz tushadi. Masalan,

**Yoshlik – zangor fasl, kechdi, sarg'ardi,**

To'kildi u. Shafqat bilmas bargrezo,

**Qora sovuqlarga** otib yubordi,

Shamollar poyida sinmoqda xazon. (R. Parfi)

2. "Ta'm bilish" sezgisi orqali idrok qilinadigan sinestezik epitetlar

Nutqda shunday bir ko'chma ma'noli birikmalar tez-tez uchray turadiki, bunda o'zga sezgilar bilan idrok etilishi kerak bo'lgan denotantning aniqlovchisi sifatida aynan "ta'm bilish" sezgisi orqali idrok etiladigan leksemalar qo'llanadi. Masalan,

Uning bilan kechgan damlardan

Senga qolgan **shirin xotira**

Mening esa **achchiq g'amlardan**

Tortib ketdi ko'zlarim xira. (R. Parfi)

Ushbu misralarda keltirilgan *shirin xotira*, *achchiq g'am* birikmalari tarkibida qo'llangan *xotira*, *g'am* leksemalarining semantik strukturasiga nazar tashlasak, izohli lug'atda berilgan ma'nolariga ko'ra *xotira*- "fikir, tafakkur, g'oya, xayol, yodda, esda saqlanadigan taassurot" kabi semalardan tarkib topganini ko'ramiz. Bunday semalarga ega bu leksema assotsiativ maydonida "ta'm" semali leksemalar bilan to'g'ridan to'g'ri o'z ma'nosida sintaktik munosabatga kirisha olmaydi. Unda nega muallif bu leksemaning aniqlovchisi sifatida *shirin* leksemasini qo'lladi? Misralar mohiyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, yorga yetisholmagan, hijron azobidagi oshiq ba'zan yor bilan bog'liq xotiralarni esga olganda beixtiyor uning yuziga quvonch yuguradi, rohatlanadi. Ayrim vaqtlarda mana shunday rohatlanish tuyg'usi bizda "shirin ta'mli" mahsulotlardan lazzatlanish jarayonida ham yuz beradi. Mana shu bog'liqlik *shirin* leksemasi *xotira* leksemasi bilan munosabatga kirishuviga turtki beradi va mazmun abstraktlashadi, ko'chimning chiroyli bir na'munasi hosil bo'ladi. Bu holat *shirin so'z*, *shirin bola*, *shirin dard*, *shirin tuyg'u* birikmalarida ham xuddi shu tarzda namoyon bo'ladi.

3. "Hid bilish" sezgisi orqali idrok qilinadigan sinestezik epitetlar

Hidni ifodalovchi leksemalar bilan hosil bo'lgan sinestezik metaforalar o'zida kuchli emotsionallikni ifodalashi bilan ajralib turadi. Masalan, 1993-yil mezonning 14da *Uyushma ahlining boshiga badbo'y musibat* tushdi. Hammamiz uchu hurmatli ustozimiz, unitazimiz, o'zimizning Oq Tuvagimiz, oppoq tuvagimiz oramizdan ketdi. (R. Parfi, Iymon asiri)

4. "Eshitish" sezgisi orqali idrok qilinadigan sinestezik epitetlar

"Eshitish" sezgisi orqali idrok etiladigan leksemalar bilan hosil bo'lgan sinestezik epitetlarga nazar tashlasak, aksariyat aslida o'zidan hech bir sas chiqarmaydigan holatlar aynan eshitish semasi orqali idroklanganligini ko'ramiz. Masalan,

*Tovushlarning rangiga* qarang,

Qarang tez **ranglarning tovushiga**

Bu sho'rlik oy ham sho'irni deyman. (R. Parfi)

5. "Teri" sezgisi orqali idrok qilinadigan sinestezik epitetlar



“Teri” sezgisi orqali idrok qilinadigan *haroratni*, jismlarning turli xil *xususiyatlarini* o‘zida ifodalovchi leksemalar bilan ifodalanagan ko‘chma ma’noli birikmalarga nazar tashlasak, mohiyatan kuchli abstraktlashuv jarayoni sodir bo‘lganiga guvoh bo‘lamiz. Masalan,

***Sovuq yolg‘onzorning*** mozori ochiq,

Xo‘rlangan qismatlar chirqirab yotar.

***Hasratimning suyuq toshlaridan***

Daxma qurmoqchiman o‘zimga.

Ichida o‘z jasadim bo‘lsin. (R.Parfi)

Ba‘zan lirikada muallif bir-biriga zid tushunchalarni ifodalovchi sinestezik epitetlarni yonma-yon qo‘llash orqali kuchli emotsionallikni yuzaga keltiradi.

Masalan,

Boshida ***qora qish, oppoq bahorlar***,

Yuragi yarim-u butun iymoni,

Talotum olamni shivirlab chorlar. (R.Parfi.)

**Xulosa ( Conclusion).** Demak, epitetlar o‘ziga xos lingvistik vosita bo‘lib, xususan, so‘z yoki so‘z birikalaridan tashkil topadi. Epitet sintaktik tarkibiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ba‘zan biror bir hodisa, obyekt yoki abstrakt tushunchalarni izohlayotgan bo‘lak, shunchaki oddiy aniqllovchilar emas, hosila ma‘noning ma‘lum sezgi bilan qabul qilingan referenti hosil qiluvchi ma‘noning boshqa sezgi bilan qabul qilingan referentiga qiyoslangan, o‘lxshatilgan bo‘ladi. Referentlar umuman boshqa-boshqa sezgi bilan qabul qilinsa ham, ularning xususiyati kishi ongida umumlashtiriladi va bir xil tasavvur etiladi, ya‘ni aniqllovchilari farqli sezgilar orqali idrok qilingan leksemalar orqali ifodalanadi, ***sinesteziya*** ro‘y beradi. Natijada kochma ma‘nodagi g‘ayriodatiy sinestezik epitetlar yuzaga keladi (Masalan, *qaynoq sevgi, shirin azob*).

### References:

1. Маҳмараимова Ш. Ўзбек тилида метафоранинг номинатив функцияси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2019. – №3. – Б. 107.
2. Маҳмудов Н. Нутк маданияти ва тилнинг эстетик вазифаси // Филология масалалари. – Тошкент, 2006, №2(11). – Б. 47–51.
3. Маҳмудов Н. Сўз шайхининг мўжизалари // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2009. – 7-сон. – С. 6.
4. Маҳмудов Н. Термин, образли сўз ва метафора // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. – № 4.
5. Миртожиев М. Лингвистик метафоралар таснифи // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1973. – №4. – Б. 34.
6. Якобсон Р. Поэзия грамматики и грамматика поэзии / Семиотика. – М.:Радуга, 1983. – 462 с.